

ажратилди [9]. Фильмда қорақалпоқ мумтоз шоири Ажиниёзнинг ҳаёти, болалик йиллари, ижод йўли тасвирланади. Картина режиссёр Қ.Атажанов томонидан тасвирга олинган. Сценарий муаллифи М.Низанов. Фильмда бош ролни Кўпжурсин Алланазаров ижро қилган. Тасвирга олиш ишлари асосан Хива шаҳрида ва республиканинг тарихий жойларида олиб борилган. Бу кино асар қорақалпоқ кино тарихида қисқа давр ичида тайёр бўлган бадиий фильм бўлиб, у қорақалпоқ кинематографияси тарихида алоҳида эътироф этишга орзуғилик воқеадир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки қисқа давр ичида “Қорақалпоқфильм” студиясида ишлаб чиқарилган бадиий фильмлар кино ихлосмандларининг ҳақиқий муҳаббатига сазовор бўлди. Киностудияда ишлаб чиқарилган бадиий фильмлардан “Танка”, “Курорт”, “Ўғри”, “Тенгиз”, “Ажиниёз” каби фильмлар ўзининг юксак бадиийлиги, халқчилиги, халқ характери ва руҳини беришдаги топқирлиги, мавзуси, образлар ролларини ижро этган актёрларнинг маҳорати билан кино мухлисларида катта шухрат қозонди. Бу фильмлар халқ муҳаббатини қозониб Ўзбекистон Республикаси кинофондидан муносиб ўрин эгаллади.

Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2018.
 2. Низанов М. Кино қалай жаратылды?. – Нөкис: «Билим», 2014; Аҳмедов Б. Кино олами. – Тошкент: «Lesson press», 2021; Абдриймов М. Қорақалпоқ фильмларининг ўзига хос хусусиятлари. // Хоразм Маъmun академияси аборотномаси, 2021, №2. 251-255-б; Юсупбаев М. «Қарақалпақфильм» киностудияси тарийхынан. // Маданият чорраҳалари, 2022, №2. 16-21-б; Аҳимбетова Л., Утегенова Н. Кинодаги режиссёрлик маҳорат. // Маданият чорраҳалари, 2023, №4. 56-58-б; Мадияров Б. Қорақалпоқ хужжатли фильмларининг хусусиятлари. // International sciences, education and new learning technologies. Volume 1, issue 11. 2024.
 3. Низанов М. Кино қалай жаратылды? – Нөкис: «Билим». 2014.
 4. Аҳмедов Б. Кино олами. –Тошкент: «Lesson press», 2021.
 5. “Қорақалпоқфильм” киностудияси жорий архиви. “Қорақалпоқфильм» киностудияси ҳақида маълумотнома.
 6. “Қорақалпоқфильм” киностудияси жорий архиви. «Қорақалпоқфильм» киностудиясида тасвирга олинган бадиий фильмлар аннотацияси.
 7. Ўзбекистон энг янги тарихининг муҳим воқеалари ва саналари. Солнома. 2017 йил. – Тошкент: «Адабиёт учқунлари», 2019.
 8. Тилепов Қ. Кино – тарбия воситаси. // Innovative Development in Educational Activities. volume 2, issue 5, 2023. 316-б.
 9. Абдуллаев Д. «Ажиниёз» фильмининг тақдироти бўлди. Ўзбекистон миллий аборот агентлиги. – <https://uza.uz/uz/posts/azhiniyoz-filmining-taqdimoti-boldi> 658005
- РЕЗЮМЕ.** Ушбу илмий мақолада мустақиллик йиллари «Қорақалпоқфильм» киностудияси томонидан тасвирга олинган тўлиқ метражли бадиий фильмлар таҳлил қилинган.
- РЕЗЮМЕ.** В данной научной статье анализируются полнометражные художественные фильмы, снятые киностудией «Каракалпакфильм» в годы независимости.
- SUMMARY.** This research paper analyses full-length feature films produced by the «Karakalpakfilm» studio during the years of independence.

ORCID ID: 0009-0002-1923-2138

TURKISTONDA YER-SUV ISLOHOTINING AMALGA OSHIRILISHIDA DAVLAT ARBOBI TUROR RISQULOVNING O'RNI

B.M.Qandov – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tayanch soʻzlar: Turor Risqulov, Turkiston Respublikasi, xalq xoʻjaligi, irrigatsiya, xalq maorifi, tarixiy tahlil, Yangi iqtisodiy siyosat.

Ключевые слова: Турор Рискулов, Туркестанская Республика, народное хозяйство, ирригация, народное образование, исторический анализ, Новая экономическая политика.

Key words: Turor Riskulov, Turkestan Republic, national economy, irrigation, public education, historical analysis, New Economic Policy.

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida yuzaga kelgan murakkab siyosiy va iqtisodiy sharoitlar, xususan, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va 1917-yildagi inqiloblar mintaq aholisi hayotida jiddiy oʻzgarishlarga sabab boʻldi. Sovet hokimiyatining oʻrnatilishi bilan bir vaqtda milliy masalalar va yer-suv munosabatlari yangicha ahamiyat kasb eta boshladi. Turkistonda yerdan foydalanishdagi adolatsizlik, mahalliy aholining huquqlarining poymol qilinishi, mustamlakachilik oqibatlar iqtisodiyotning tanazzulga yuz tutishiga olib keldi. Turor Risqulov ana shunday murakkab siyosiy sharoitda Turkistonda yer-suv islohotlarini amalga

oshirishda yetakchi siyosiy arbob sifatida maydonga chiqdi. Uning faoliyatining bosh maqsadi – yer-suv munosabatlarini isloh etish orqali mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilash, qishloq xoʻjaligini tiklash, irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish va kooperativ harakatlarini rivojlantirish edi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati agʻdarib tashlangach, 1918-yil 20-aprel – 1 mayda boʻlib oʻtgan Turkiston oʻlka Sovetlarini V syezdida RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR) tuzildi [1:211-215]. Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy muhit, yer-suv islohotlarining zarurati va ularni amalga oshirishdagi asosiy

qiyinchiliklar to'liq yoritilib, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslanadi. Bu mavzu Turkiston tarixidagi muhim islohot davrini chuqur o'rganish va T.Risqulovning davlat arbobi sifatidagi o'rnini baholashda dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodolar. XX asrning 20-yillarida Turkiston milliy kommunistlar faoliyati mavzusi o'rganuvchi tarixiy adabiyotlar sirasiga sovet hokimiyati yillarida yaratilgan tadqiqotlar, chop etilgan maqola, risola va monografiyalar kiradi. Bularga: G.Safarov, N.Borisov, T.Risqulov, F.Xo'jayev, P.Alekseyenkov, S.Xo'janov, N.To'raqulov, R.Inog'omov, P.Galuzo singari davlat va siyosat arboblarning turli kitoblari hamda sovet hokimiyatining keyingi o'n yilliklarida chop etilgan tadqiqotlarda mazkur muammoning ba'zi jihatlari yoritilgan.

Mustaqillik yillarida yaratilgan R.Rajapova, R.Murtazayeva, R.Abdullayev, S.A'zamxo'jayev, D.Bobojonova, Q.Rajabov, A.Golovanov, R.Shamsutdinov, D.Ziyayeva, B.Hasanov, M.Haydarov, X.Yunusova, Sh.Davlatova, K.Saipova, A.Mingnorov va boshqa tarixchilarning tadqiqotlari kiradi. Shuningdek, O'zbekistondagi yirik tarixchi olimlar tomonidan tayyorlangan turli kollektiv monografiyalar [3] va fundamental tadqiqotlarda hamda turli darsliklar va ma'lumotnomalarda Turkistonda milliy kommunistlar faoliyatining ba'zi jihatlari ko'rsatilgan.

Muhokama. Turkistonda xalq xo'jaligining tiklanishi yangi iqtisodiy siyosatning amalga oshirilishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. Turkistonning federatsiyaning boshqa mintaqalaridan tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy farqi, o'ziga xos xususiyatlari bo'lganligi sababli yangi iqtisodiy siyosatni respublikaning tarixiy xususiyatlariga muvofiq amalga oshirish zarur edi. Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida bo'lgan, turli turmush tarzini olib borgan xalqlar yashagan.

Turkiston xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i qishloq xo'jaligi edi. Inqilobdan keyin respublikada amalga oshirila boshlagan asosiy voqealardan biri agrar islohot edi. Respublika aholisining asosiy qismini dehqonlar tashkil etganligi sababli bu ijtimoiy tabaqaga nisbatan davlat siyosatini to'g'ri amalga oshirish katta ahamiyatga ega edi. Ko'rinib turibdiki, 1921-1922-yillarda Turkistonda amalga oshirilgan yer-suv islohoti o'zining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati bilan birga, avvalo, umummilliy xususiyatga ega edi. Islohotlar davomida chor hukumatining qishloq xo'jaligi, yer munosabatlari sohasidagi mustamlakachilik siyosati oqibatlarini bartaraf etishga, shuningdek, mahalliy xalqlar va o'troq rus dehqonlari va rus kazaklarining erdan foydalanish huquqlarini amalda tenglashtirish kabi murakkab va murakkab muammoni hal qilishga harakat qilindi.

1917-1920-yillarda amalga oshirilgan agrar o'zgarishlar Turkistondagi agrar islohotlarning birinchi bosqichi bo'ldi. Bu islohotlarning ikkinchi bosqichi Rossiya imperiyasi hukumati yurgizib kelgan mustamlakachilik siyosatining yer munosabatlaridagi oqibatlarini tugatishga qaratilgan yer-suv islohotining (1920-1922-yillar) o'tkazilishidan boshlandi.

Ko'chirish ma'muriyati mahalliy aholining ota-bobo yerlarini rus dehqonlari uchun tortib olib, o'rnatib oldi. Turkistonda mahalliy aholini alohida huquq va imtiyozlar orqali ekspluatatsiya qilib, boyib ketgan rus dehqonlari sovet hukumatining agrar siyosatiga qattiq qarshilik

ko'rsatdilar. Islohot jarayonida dolzarb masalalarni qulol kuchi bilan hal etish zarur edi, ya'ni o'sha yillarda 151 rus posyolkasi va 175 kazak xo'jaligi harbiy kuch yordamida tarqatib yuborildi, kuch bilan qurilgan 95 aholi punkti vayron qilindi. Turkiston hududidan Rossiyaga eng nufuzli rus mustamlakachilarining 8084 oilasi ko'chirildi [3:33]. Rus quloqlaridan musodara qilingan 250 mingdan ortiq desyatina boy yer egalari qaytarildi, egasi bo'lmagan 12,8 ming desyatina esa mahalliy xalqning kambag'allari o'rtasida taqsimlandi.

Biroq ko'plab obyektiv qiyinchiliklar va subektiv xatolar tufayli islohot o'z maqsadiga to'liq erisha olmadi. Islohotdan keyin ham dehqonlarning 37,6% kambag'al va yersiz dehqonlar edi, o'rta dehqonlar soni esa 1,4% dan oshmadi. Shu bois T.Risqulovga hukumat rahbari sifatida yer-suv islohotini yakunlash, yer tuzish ishlarini yakuniga yetkazish topshirildi.

O'sha davrda yerga joylashtirishning asosiy masalalari respublika Yer xo'jaligi xalq komissarligi tomonidan hal qilinganligi sababli T.Risqulov 1922-yilning kuzida mazkur komissarlik hay'ati a'zoliciga saylanadi. Bu unga respublikada olib borilayotgan yer tuzish ishlarining borishi ustidan bevosita nazorat o'rnatish imkonini berdi.

Natijalar. 1922-yil 22-maydagi mehnat bilan yerdan foydalanish qonuniga mos tarzda bajarila boshladi. RSFSRning 1922-yil 30-oktabrda qabul qilingan "Yer kodeksi"ga va 1922-yil dekabrda Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining XI syezdida qabul qilingan "Yerdan foydalanish to'g'risidagi asosiy qonun"ga [4:4] muvofiq respublikada T.Risqulov rahbarligida ishlab chiqilgan "Yer kodeksi" qabul qilindi. Bunga asosan, yer-suv islohotini amalga oshirish uchun joylarda uezd yer tuzish komissiyalari tashkil qilindi. Yettisuv viloyatining Prjevalsk, Pishpek, Olmaota uezdlari, Sirdaryo viloyatining Avliyoota, Chimkent uezdlari va Toshkent uezdining bir qismi, Farg'ona viloyatining Andijon uezdi va O'sh uezdining bir qismi yer tuzish ishlarining zarbdor rayonlari hisoblangan edi. Yer tuzish komissiyalari dastlab keng ko'lamda dehqonlar orasida tashviqot, tushuntirish ishlari olib bordilar. Dehqonlar yer-suv islohotida faol qatnashdi. Yettisuv viloyati islohotning asosiy rayoni bo'ldi. Shu bilan birga Turkiston ASSRning asosan o'zbeklar yashaydigan hududlarida ham "mehnatsiz yashovchi" deb nomlangan dehqon xo'jaliklarini tugatish va "quloq" deb nomlangan dehqon xo'jaliklarining mehnat normasidan ortiqcha yerlari tortib olinib, yersiz va kam yerli dehqonlar yer va asbob-anjomlar bilan ta'minlandi.

1922-1924-yillarda respublikada olib borilgan ko'chirish ishlari natijasida dehqon va ko'chmanchilarga 534 ming desyatina, kambag'al rus dehqonlariga 50552 desyatina, kommuna va artellarga 34720 desyatina yer ajratildi. Ko'chmanchilarning mollarini boqish uchun qo'shimcha 40 ming desyatina yer ajratildi [5:20]. Yerlarni ko'chirish ishlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi respublika qishloq xo'jaligining tiklanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Turkiston dehqonchiligini tiklash uchun irrigatsiya muammosini hal etish alohida ahamiyatga ega edi. Respublika iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligi suv masalasiga bog'liq edi. Shuning uchun 1922-yilning kuzidan boshlab respublikada irrigatsiya tizimlarini tiklash va yangilarini qurish, bokira va lalmi yerlarni o'zlashtirish ishlari olib borildi. 1923-yil yozida bo'lib o'tgan Turkiston ASSR

Markaziy Ijroiya qo'mita plenumida T.Risqulov sug'orish muammosining xalq xo'jaligi uchun ahamiyati haqida gapirar ekan, shunday ta'kidlagan edi: "Suv xo'jaligi va umumiy suv muammosi Turkistonning butun xo'jalik tuzilmasida asosiy muammo hisoblanadi. Statistika murojaat qilsak, Turkistonning 4 tadan 3 tasi suv xo'jaligiga bog'liqligini ko'ramiz" [6]. 1922-yil kuzida Turkiston suv xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i M.Rikunov lavozimidan bo'shatilib, T.Risqulov rais etib saylandi.

Turkiston - RSFSRning asosiy paxta bazasi ekanligini va sug'orish ishlarining paxtachilikni rivojlantirishdagi ahamiyatini Markazga isbotlab bergan T.Risqulov respublikada sug'orish ishlari uchun federatsiya fondidan 6 million so'm oltin pul ajratishga erishdi [7:99]. 1922-yilda respublikada 1.180.000 desyatina, 1923-yilda esa 1.587.352 desyatina yer sug'orildi. Amaliy sug'orish ishlari bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlar ham rivojlandi.

Respublika qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i paxtachilik edi. T.Risqulov paxtachilikni tiklash va rivojlantirish uchun katta kuch sarfladi. "Mamlakat qishloq xo'jaligi, jumladan, paxtachilikning tanazzul va turg'unlik cho'qqisi 1922-yilga to'g'ri keldi, so'ngra intensiv o'sish davri boshlandi" [8], deb ta'kidlaydi tadqiqotchi R.Karimov. T.Risqulov respublika xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishdagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratdi. Turkistonda xalq xo'jaligini tiklash kooperatsiyani rivojlantirish va xo'jalikni boshqarishning kollektiv modeli orqali amalga oshirildi. Kooperativlar paxtachilikda tartibsizlikka qarshi kurash vositasiga aylandi. U kooperativ va shirkatlar orqali paxta mahsulotlaridagi chayqovchilikka barham berdi, dehqonlar va davlat sanoati o'rtasida tabiiy va pul almashinuviga keng yo'l ochdi. Paxtachilik kooperativlari bilan bir qatorda g'allachilik, bog'dorchilik, chorvachilik va sholichilik kooperativlari ham rivojlangan. 1923-yil may oyida Turkiston hukumati suv xo'jaligi kooperativlari to'g'risidagi Nizomni tasdiqladi [9].

1923-yilda 214 shirkatga birlashgan 58 ming dehqon 110242 desyatina yerga paxta yetishtirdi va shu yili davlatga 4 million tup paxta sotdi. 1923-yilda paxtachilikning 82 foizi kooperativlarga birlashtirildi. O'sha yili respublikada 32997 desyatina ekin maydonlari bo'lgan 67 ta sovxoz tashkil etildi [10:46].

Partiya va sovet organlari Turkiston qishloqlarida agrar siyosatni amalga oshirish maqsadida kombedlar (kambag'allar komitetlari), dehqonlar uyushmalari, "Qo'shchi" uyushmasi singari dehqonlarning sinfiy tashkilotlarini tashkil qildilar. Turkistonda dehqonlarni kambag'al komitetlarga birlashtirishda 1920-yilda tashkil etilgan "Qo'shchi" uyushmasi katta yordam berdi. "Qo'shchi" uyushmasi yerga o'z mehnati bilan ishlov beradigan dehqonlarni birlashtirgan ittifoq edi. 1922-yilning kuzida "Qo'shchi" uyushmasi a'zolarining soni Sirdaryo viloyatida 90 ming kishiga, Yettisuvda 80 mingga, Samarqandda 30 mingga, Farg'onada 25 mingga, Amudaryo bo'limida 5 mingga yaqin, Zakaspiy viloyatida 30 mingga yaqin, jami 260 ming kishiga yetdi. "Qo'shchi" uyushmasi Markaziy Qo'mitasidan tashqari 6 ta viloyat, 32 ta tuman, 200 dan ortiq bolshevik va 2000 ta qishloq bo'limlari mavjud edi [12:37].

1923-yilda qishloq xo'jaligi kooperativlari direktiv tashkilotlarining qarori bilan Turkiston qishloq xo'jaligi birlashmasi va Turkiston paxta ittifoqi "Qo'shchi" ittifoqidan ajralib chiqdi. 1923-yilda davlat qishloq xo'jaligi omborlaridan dehqonlarga 316294 ming so'm oltin pullar tarqatildi. 1923-yil bahorida Yer xo'jaligi xalq komissarligi "Yettisuv viloyati kambag'allariga 32,4 ming tonna, Sirdaryo viloyati kambag'allariga 1,2 ming tonna, Samarqand viloyati kambag'allariga 1,3 ming tonna urug'lik don tarqatdi" [11:45].

Xulosa. Xullas, 1920-yil sentabrda T.Risqulov rahbarligida bo'lib o'tgan Turkiston kommunistik partiyasining V syezdi va Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining IX syezdi yer-suv islohotini o'tkazish to'g'risida aniq qarorlar qabul qildi. Yer qurish ishlari muvaffaqiyatli yakunlansa, mustamlakachilik qoldiqlariga hal qiluvchi zarba berish va mahalliy aholining yersiz kambag'allarini yer bilan ta'minlash, dehqonchilik uchun imkoniyatlar ochish kabi respublika hukumati oldida turgan eng muhim muammoni hal qilgan bo'lar edi. T.Risqulov, shuningdek, yangi o'rnashib qolgan kam ta'minlangan aholini davlat tomonidan ajratilayotgan qishloq xo'jaligi texnikasi, asbob-uskunalar, urug'lik va moliyaviy kreditlar bilan ta'minlash, ularning huquqlarini qonuniy himoya qilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi.

Adabiyotlar

1. Гордиенко А.А. Образование Туркестанской АССР. – Москва: «Юридическая литература», 1968. – С.211-215.
2. Qandov B.M. Turkistonda kadrlarni mahalliyashtirish siyosatida Turor Risqulovning roli (XX asrning 20-30-yillari). // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti jurnali. №12. – Buxoro: 2024. 65-b.
3. Алимова Р.Х. Аграрные преобразования в Узбекистане 20-х годов. // Общественные науки в Узбекистане. №9. 1989. – С. 33.
4. Постановление XII Всетуркестанского съезда Советов. // Бюллетень №2. – Т. 1922. – С. 4.
5. Темирходжаев П.С. Упрочение Ленинского союза рабочих и крестьян в борьбе за восстановление сельского хозяйства Туркестана. // Общественные науки в Узбекистане. №1. 1967. – С. 20.
6. Рискулов Т. О мероприятиях по проведению в жизнь решений ХИИ съезда РКП(б) и совешания по национальному вопросу при СК. / Туркестанская правда. – Ташкент: 1 августа 1923.
7. Устинов В.М. Служение народу (Партийная и государственная деятельность Т. Рискулова). – Алма-Ата: «Казахстан», 1984. – С.99.
8. Каримов Р.Х. НЕП в Узбекистане закономерности и специфика. // Общественные науки в Узбекистане. 1988. № 3. – С.24.
9. Псарев М. Краткая записка относительно водного законодательства в Туркестане. / Туркестанская правда. – Ташкент: 3 июня 1923.
10. Темирходжаев П., Ерзин Э. Первые шаги в осуществлении Ленинского кооперативного плана в Туркестанской АССР. // Общественные науки в Узбекистане. № 8. 1969. – С.46.
11. Давлет-Юсупов М.Х. Союз «Кошчи» и его роль в укреплении Советской власти в Туркестане (1919-1924 гг.). – Ташкент: Госиздат УзССР, 1956.
12. Скалов Г. Опыт классового расслоения в условиях Туркестана (Союз "Кошчи" и его роль в общественной жизни Туркестана). // Жизнь национальностей. № 22. – Москва, 1923. – С.37.

РЕЗЬЮМЕ. Ushbu maqolada Turkistondagi agrar islohotlar jarayoni, xususan, 1921-1922 va 1923-1924-yillarda amalga oshirilgan islohotlar bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Bu jarayonda T.Risqulovning tashabbuslari, hukumatdagi vazifalari va qabul qilgan qarorlari ilmiy manbalar asosida baholangan. Maqolada Turkistonda yer-suv islohotlarining amaliy ahamiyatini, ularning ijtimoiy adolatni tiklash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini hamda bu jarayonda Turor Riskulovning yetakchi rolini ochib beradi.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется ход аграрных реформ в Туркестане, в частности, реформы, проведённые в 1921-1922 и 1923-1924 годах. На основе научных источников оцениваются инициативы Т.Рыскулова, задачи, поставленные им в правительстве, и принятые в ходе этих реформ решения. В статье в целом раскрывается практическое значение земельно-водных реформ в Туркестане, их роль в восстановлении социальной справедливости и обеспечении экономической стабильности, а также ведущая роль Турора Рыскулова в этом процессе.

SUMMARY. The article analyzes the course of agrarian reforms in Turkestan, in particular, the reforms carried out in 1921-1922 and 1923-1924. Based on scientific sources, the initiatives of T.Ryskulov, the tasks he set in the government, and the decisions made during these reforms are assessed. The article generally reveals the practical significance of land and water reforms in Turkestan, their role in restoring social justice and ensuring economic stability, as well as the leading role of Turor Riskulov in this process.

ХОРАЗМНИНГ ЎРТА АСР ТЕМИРЧИЛИК ХУНАРМАНДЧИЛИГИ СОҲАЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ: МАНБАЛАР ВА ЭТНОГРАФИК МАТЕРИАЛЛАР ТАҲЛИЛИ

Б.Қ.Турганов – тарих фанлари номзоди, доцент

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институтини

Таянч сўзлар: Хоразм, ўрта аср, темирчилик, чўянгарлик, устахона, ишлаб чиқариш технологиялари, меҳнат тақсимоли.

Ключевые слова: Хорезм, средневековье, кузнечное дело, чугунолитейное ремесло, мастерская, технологии, разделение труда.

Key words: Khorezm, Middle Ages, blacksmithing, cast ironworking, workshop, production technologies, division of labor.

Кириш. Ўрта асрларда Хоразм воҳасида металл-созлик хунаромандчилиги – чўянгарлик, темирчилик, анжомсозлик, пичоқсозлик ва бошқа ихтисослашган тармоқлар иқтисодий ва маданий ҳаётида муҳим ўрин тутган. Шунга қарамасдан, ушбу соҳаларидаги ишлаб чиқариш технологияларининг хусусиятлари тарихий нуктаи назардан ўрганилмаган мавзулардан биридир. Ҳолбуки, ёзма манбалари ва этнографик материаллардаги маълумотлар металл-созлик соҳаларидаги технологик жараёнларни ўрганиш ва тизимлаштиришда муҳим аҳамият касб этади.

Тадқиқотдан мақсад - Хоразмнинг ўрта асрлардаги темирчилик хунаромандчилиги соҳаларидаги металл-га ишлов бериш усулларини қайта тиклаш, анъаналар, инновациялар ва трансформацион ўзгаришчанлигини ўрганиш, устахоналар конструктив тузилиши, меҳнат қуроллари, маҳсулот турлари ва меҳнат тақсимолига оид тарихий маълумотларни ёритишдир.

Методология. Мақолада тарихий-этнографик методлар, қиёсий-таҳлил, манбашунослик таҳлили ҳамда фанлараро ёндашув асосий илмий асос сифатида қабул қилинди.

Адабиётлар таҳлили. Ўрта аср муаллифларидан Ар-Розий (IX аср) асаридаги маълумотларга кўра: темирчилик устахонасида ўчоқ (қур), тигель (бутака), қовш яъни металл эритишда фойдаланувчи маҳсус чўмич (машу), теридан тайёрланган дам (зикк ёки минфах), ярим цилиндрсимон темир шакл (рат) каби ускуналар ишлатилган [9:203,207]. Хубайш Тифлийсий (XIII аср)нинг хунаромандчиликга оид рисолида устахонада ишлатиладиган асбоб-ускуналардан ташқари, темирчилик маҳсулотларини сифатли яшашнинг сир-саноти, уларни бир-бирига қовширлаш ва бекитиш усуллари ҳақидаги маълумотлар берилган [1:76,78-80]. Хусусан, ўрта асрлардаги Шарқ усталарининг қурол-аслаҳалар яшаш анъаналари, пўлат

ва турли хил қотишмаларни қайта ишлаш маҳоратлари, қуйма, сўкма ва металл устига металл инкрустацияси билан ишлаш техникасига доир маълумотлар мавжуд.

Рус тадқиқотчиси М.Иванин асарида (1873 йил) Хива хонлигидаги темирчилик ва чўянгарлик устахоналаридаги ўчоқларининг тузилиши, ишлаш технологиялари ва деҳқончилик қуроллари тайёрланиш жараёнлари тўғрисида маълумотлар берилган [7:48-49].

И.Жаббаров тадқиқотларида Хоразмнинг XIX аср охири XX аср бошидаги чўянгарлик, темирчилик соҳаларида маҳсулот ишлаб чиқаришнинг технологик жараёнлари ўрганилган [3:208-215;4:72-90]. Тадқиқотда темирчилик ва чўянгарлик ўчоқларнинг конструктив тузилиши, металлга технологик ишлов бериш жараёнлари, меҳнат қуроллари, асбоб-ускуналари ва соҳадаги меҳнат тақсимоли ҳақидаги маълумотлар берилган.

Қорақалпоқ этнографларидан Т.А.Жданко, Х.Есбергенов, А.О.Утемисов асарларида ҳам XIX-XX аср бошидаги қорақалпоқ халқининг темирчилик, чўян қуйиш устахоналари, меҳнат қуроллари ва улар билан боғлиқ маросим, урф-одатлар ҳақидаги этнографик маълумотларни келтирилади [11:12-41].

Мухокама. Мавзунини ёритишда қуйидаги масалалар муҳокама қилинди:

- Ёзма манбаларидаги темирчилик устахоналарига оид маълумотлар (Ар-Розий (IX аср) , Хубайш Тифлийсий (XIII аср), М. Иванин асарлари таҳлили.

- Этнографик материалларни билан ёзма манбалар билан таққослаш.

- Темирчилик устахоналари конструктив тузилиши, иссиқлик манбалари (ўчоқ, босма дам), металл муштаҳкамланишига оид маълумотлар таҳлили.

- Ишлаб чиқаришни ташкиллаштириш ва ижтимоий меҳнат тақсимоли.

Натижалар. Ўрта асрларда Хоразмда хунаромандчиликнинг бошқа соҳалари сингари